Qonun normasiga mazkur tahrirda oʻzgartish va qoʻshimcha kiritilishi yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, JK 116- va 117-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni farqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Bunda 116-moddada nazarda tutilgan jinoyatning subyekti maxsus, yaʼni kasbiga koʻra biror majburiyatni bajarishi shart boʻlgan (116-modda birinchi qismi) yoki qonun yoxud maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam koʻrsatishi shart boʻlgan shaxslar (116-modda ikkinchi qismi) hisoblanadi, yaʼni 116-moddadagi javobgarlik belgilangan jinoyatning subyekti xavf ostida qoldirish (117-modda) subyektiga nisbatan birmuncha tor doiradagi shaxslar sanaladi.

Har ikki jinoyatning obyekti bir xil, yaʼni inson hayoti yoki sogʻligʻining xavfsizligi hisoblanadi. Biroq JK 116-moddasi ikkinchi qismi jabrlanuvchisi alohida belgiga ega boʻlgan bemor boʻlsa, 117-moddada jabrlanuvchilar (hayoti yoki sogʻligʻi xavf ostida qolgan va oʻzini oʻzi himoya qilish imkoniyatidan mahrum boʻlgan shaxslar) doirasi birmuncha kengdir.

Obyektiv tomondan JK 116-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi harakatsizlik (bajarmaslik) yoki aralash harakatsizlik (lozim darajada bajarmaslik), shu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi esa harakatsizlikda (yordam koʻrsatmaslik) ifodalanadi.

“Xavf ostida qoldirishga nisbatan xavf ostiga solib qoʻyishning ijtimoiy xavfliligi yuqoriroq hisoblanadi” [8]. Shu jihatdan JK 116-moddasi ikkinchi qismi va 117-moddasi obyektiv tomoni bir-biriga oʻxshab ketadi [9]. Har ikkala jinoyat ham moddiy tarkibli boʻlib, jabrlanuvchiga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir darajadagi shikast yetishini nazarda tutadi.

E.O. Turgʻunboyev “JK 117-moddasi va 116-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatlarning obyekti, obyektiv tomoni va subyektiv tomoni belgilari bir xil boʻlib, faqat subyektiga koʻra farq qiladi. JK 116-moddasi ikkinchi qismi subyekti kasalga yordam koʻrsatish majburiyati yuklatilgan shaxslar boʻlsa, JK 117-moddasi subyekti jabrlanuv-

chini xavfli ahvolga solib qo‘ygan yoki yordamga muhtoj shaxsga yordam ko‘rsatishga majbur bo‘lgan shaxslar hisoblanadi” [10], – deb yozadi.

Biz muallifning bu fikriga qo‘shilmaymiz. Chunki JK 116- va 117-moddalari obyektiv tomoni jabrlanuvchining huquqiy holati, jabrlanuvchi va ayblanuvchi o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra ham farqlanadi [11]. Xususan,

birinchidan, 116-modda obyektiv tomoni aralash harakatsizlik (ya’ni ham yordam ko‘rsatadi, lekin lozim darajada bo‘lmaydi), 117-moddada esa butunlay harakatsizlik (umuman yordam ko‘rsatmaydi) bo‘ladi [12];

ikkinchidan, 116-modda ikkinchi qismi bo‘yicha jabrlanuvchi kasal hisoblansa, 117-modda bo‘yicha har qanday shaxs jabrlanuvchi bo‘lishi mumkin;

uchinchidan, 117-moddada aybdor jabrlanuvchini shu ahvolga solgan bo‘lishi lozimligi holati ham inobatga olingan, vaholanki, 116-moddada bunday alomat mavjud emas.

Biroq JK 116- va 117-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni qonunda nazarda tutilgan mazkur belgilar asosida farqlash yetarli emas. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin. Masalan, shifokor bemorni operatsiya qilish jarayonida uning yaqinlari talab qilingan pulni olib kelmagani uchun bemorni og‘ir ahvolda tashlab qo‘yadi. Natijada operatsiya oxiriga yetkazilmay bemor vafot etadi. Ushbu holat qanday kvalifikatsiya qilinishi zarur degan savol tug‘iladi.

Agar qilmishga haqiqiy holatni hisobga olgan holda baho berilsa, JK 117-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin bo‘ladi. Chunki operatsiya jarayonida shifokor o‘z mijozini xavfli ahvolga solib qo‘yadi, bu esa uning o‘limiga sabab bo‘ladi. Bu qilmish 117-modda obyektiv tomonining zaruriy belgilarini o‘zida ifodalaydi.

Biroq ijtimoiy xavfli qilmish natijasida zarar ko‘rgan ijtimoiy munosabatlar doirasi JK 116-moddasi bilan himoya qilinadigan obyektga muvofiq keladi. Ya’ni korxona, muassasa va tashkilotlarning obro‘si, normal ish faoliyati zarar ko‘radi. Muammo shundaki, qilmishning obyekti bir modda doirasiga, obyektiv tomoni esa boshqa modda doirasiga tushib qolmoqda. Aynan mazkur muammoning oldini olish uchun kasb faoliyati bilan bog‘liq xavf ostida qoldirish bilan bog‘liq bo‘lgan qilmishlarni ham 116-modda dispozitsiyasi doirasida aks ettirish lozim.

I.V. Seryogin fikriga ko‘ra, “shifokorlar va tibbiyot sohasida maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan boshqa shaxslarni mansabdorlik jinoyatlari subyektlari qatoriga kiritish uchun obyektiv asos mavjud. Chunonchi, davlat apparatining muayyan qismi sanalgan sog‘liqni saqlash tizimi muassasasida faoliyatning asosiy yo‘nalishi tibbiy faoliyatni lozim darajada amalga oshirish hisoblanadi. Mazkur tizim muassasalari ishining sifati, ularning obro‘si, eng avvalo, shifokorlar va maxsus tibbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan boshqa shaxslarning ishiga bog‘liq bo‘ladi” [13]. Shunga asoslanib muallif tibbiyot sohasida oliy ma’lumotga ega bo‘lgan barcha shaxslar mansabdor shaxslar hisoblanadi, degan xulosaga keladi.

Bizningcha, mazkur fikr mansabdor shaxs tushunchasining mazmuniga zid hisoblanadi.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy vazifalarini belgilashda bularning barchasini e’tiborga olish va tibbiy faoliyat tushunchasi mazmunidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. U bemorlarni davolash bilan bog‘liq muayyan vazifalar: tekshirish, tashxis qo‘yish, tegishli muolajani tayinlash, jarrohlik aralashuvini amalga oshirish va h.k. emas, balki turli tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishni (bemorning ambulatoriya va statsionar kartasini yuritish, retseptlar yozib berish, ma’lumotnomalar, yo‘llanmalar berish va hokazolarni) ham qamrab oladi.

Bunday hollarda tibbiyot xodimi huquqiy oqibatlarga sabab bo‘ladigan, tashkiliy-boshqaruv harakatlariga yaqin turadigan, ya’ni sirtdan mansabdor shaxs belgilariga o‘xshash bo‘lgan muayyan harakatlarni bajarishiga qaramay, aslida u mansabdor shaxs hisoblan-

maydi hamda bemorlarni davolash borasidagi oʻz kasbiy vazifalarini bajaradi.

Jinoyat kodeksining mansabga sovuqqonlik bilan qarash uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan 207-moddasiga muvofiq, oʻz vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda boʻlishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ziyon yetkazilishiga sabab boʻlgan, loʻnda qilib aytganda, oʻzlarining tashkiliy-boshqaruv va maʼmuriy-xoʻjalik xususiyatiga ega boʻlgan kasbiy vazifalarini lozim darajada bajarmaslikda aybdor boʻlgan tibbiyot sohasidagi mansabdor shaxslar (shifoxonaning bosh shifokori, biron-bir boʻlim boshligʻi va shu kabilar) javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Tibbiyot xodimlari tomonidan sodir etilgan kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilish uchun aynan qaysi kasbiy yoki mansab vazifalari buzilganini toʻgʻri aniqlash talab etiladi.

Masalan, jarrohlik boʻlimi boshligʻi bemorni operatsiya qilar ekan, oʻz lavozimi boʻyicha maʼmuriy-xoʻjalik yoki tashkiliy-boshqaruv vazifalarini emas, balki bemorni davolash borasidagi kasbiy vazifalarini amalga oshiradi. U kasb yuzasidan oʻz vazifalarini boʻlim boshligʻi sifatida emas, balki jarroh sifatida lozim darajada bajarmaydi. Binobarin, jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilish toʻgʻrisidagi masalani yechishda ayni shu holatdan kelib chiqish zarur.

Shunga qaramay, tibbiyot xodimini mansabdor shaxs deb eʼtirof etish haqidagi fikr-mulohazalar ilgari ham koʻplab olimlar tomonidan tanqid qilingan. Masalan, G.N. Borzenkov “Tibbiyot xodimlari jabrlanuvchi uchun ogʻir oqibatlarga sabab boʻlgan oʻz qilmishlari uchun JKning inson hayoti va sogʻligʻiga qarshi jinoyatlarga doir moddalariga muvofiq javobgarlikka tortilishlari lozim” [14], – deb hisoblagan.

Baʼzi manbalarda “Shifokorlar u yoki bu muassasa xizmatchilari hisoblanadilar va muayyan lavozimlarni band etadilar, shu tufayli ham ular oʻz kasb-kori munosabati bilan emas, balki xizmat boʻyicha vazifalarini bajarishlari munosabati bilan mansabdor shaxslar deb topilishlari va suiisteʼmol uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin” [15], – deb taʼkidlangan.

Yuqorida bayon etilganlar tibbiyot xodimlari kasb yuzasidan oʻz vazifalarini bajarish chogʻida mansabdor shaxslarga xos boʻlgan tashkiliy-boshqaruv vakolatlariga ham, maʼmuriy-xoʻjalik vakolatlariga ham ega boʻlmaydilar, binobarin, mansabga sovuqqonlik bilan qarash uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin emas, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi.

Shu bilan bir qatorda, umumiy qoidadan istisno holatlar mavjud boʻlishini ham taʼkidlash lozim. Jumladan, tibbiyot muassasasining mansabdor shaxsi jarrohlik uchun pora olib, soʻng oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmay, uning qilmishi bemorning oʻlimiga sabab boʻlsa, uning harakat (harakatsizlik)lari JK 116- va 210-moddalari bilan jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak. Chunki bu yerda ikki mustaqil jinoyat tarkibi (pora olish va kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik) mavjud.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati inson faoliyatining turli sohalariga taalluqli qoidalarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi koʻp sonli maxsus normalar bilan toʻqnashadi.

Xususan, JK 116-moddasida koʻzda tutilgan kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati:

– ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-moddasi);

– atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini koʻrmaslik (JK 195-moddasi);

– atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-moddasi);

– yadro qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish (JK 255-moddasi);

– tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish (JK 256-moddasi);

– mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (JK 257-moddasi);

– sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish (JK 257[1]-moddasi);

– tog‘-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 258-moddasi);

– yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 259-moddasi);

– temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish (JK 260-moddasi);

– transportni ta’mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish (JK 262-moddasi) kabi jinoyatlar bilan o‘xshash xususiyatlarga ega.

Ushbu jinoyatlarning o‘xshashligi shundan iboratki, ular odatda o‘z kasb yoki xizmat vazifasiga beparvolik, loqaydlik, mas’uliyatsizlik bilan yondashish natijasida sodir etiladi.

Har bir holatda kasb yoki xizmat vazifasi bilan bog‘liq u yoki bu qonunda, qonunosti normativ-huquqiy hujjatda, alohida faoliyat turini tartibga soluvchi nizom va yo‘riqnomalarda belgilangan maxsus qoidalar buziladi.

Boshqacha aytganda, har bir alohida holatda shaxs tomonidan muayyan soha bo‘yicha kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati sodir etiladi. Ya’ni ushbu holatda qonun chiqaruvchi har bir alohida holatda tajovuz obyektidan hamda ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda jinoyatlarni o‘zaro ajratgan.

Masalan, JK 193-moddasida sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari hamda qoidalarining mansabdor shaxs tomonidan buzilishi yoxud davlat komissiyasi a’zolari tomonidan bu obyektlar normativ hujjatlarda belgilangan qoidalar buzib qabul qilinganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu qilmishda tajovuz obyekti ekologiya xavfsizligiga oid munosabatlar hisoblanadi. Yoki JK 257-moddasida texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi yoki mehnatni muhofaza qilishning boshqa qoidalari shu qoidalarga rioya etilishi uchun mas’ul bo‘lgan shaxs tomonidan buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan. Bunda 116- va 257-modda maxsus obyekti bilan ham farqlanadi. Ya’ni 257-moddaning maxsus obyekti jamoat xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabat hisoblanadi.

Guvohi bo‘lganimizdek, har bir alohida holatda tajovuz obyektlari xilma-xildir. Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni guruhlarga ajratishda ana shu mezonga tayanish lozim.

Kasb yuzasidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik belgilangan JK 116-moddasi boshqa maxsus normalarga nisbatan umumiy ahamiyat kasb etadi hamda mazmunan ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat turlarini qamrab oladi.

Biroq qilmish JK Maxsus qismining alohida maxsus normasida ko‘zda tutilgan kasb bilan bog‘liq holdagi ijtimoiy munosabatga (ekologik xavfsizlik, mehnat, sanitariya, tog‘-kon, qurilish yoki portlatish ishlari, tadqiqot faoliyati, transport xavfsizligi va b.) tajovuz qilsa, qilmish maxsus norma bilan kvalifikatsiya qilingan holda JK 116-moddasi bilan qo‘shimcha tarzda kvalifikatsiya qilinmaydi.

Ayni damda O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining afzal jihatlaridan biri va boshqa mamlakatlar huquqshunoslari [14]

tomonidan ham tan olingan xususiyati uning 116-moddasi tuzilishi bilan bogʻliqdir. Ya'ni JK 116-moddasi kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bogʻliq barcha holatlarni qamrab oladi.

Mazkur qilmishlar faqatgina obyekt nuqtayi nazaridan farq qiladi, deyish ham toʻgʻri emas. Oʻz navbatida, ushbu qilmishlar obyektiv va subyektiv tomon hamda subyektiga koʻra ham bir-biridan farqlanadi.

JK 116- va 207-moddalarida (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) nazarda tutilgan jinoiy qilmishlar obyektiv tomondan bir-biriga yaqin – har ikkala qilmish ham oʻziga yuklangan vazifalarga nisbatan loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda boʻlish, ularni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, kasbiga nisbatan beparvolik yoki insofsizlik bilan munosabatda boʻlishni nazarda tutadi hamda buning natijasida muayyan jinoiy oqibatlar kelib chiqadi.

"Mansabdor shaxsning oʻz vakolatlarini bajarmasligi toʻla va qisman boʻlishi mumkin, bu xizmat lavozimidan kelib chiqadigan muayyan vazifalarni bajarishga real imkoniyati boʻlganidagi harakatsizligida namoyon boʻladi. Mansabdor shaxsning oʻz vakolatlarini lozim darajada bajarmasligi ularning qisman, kechiktirib, noaniq bajarilishida ifoda etiladi" [15, 16].

JK 116- va 207-moddalarida belgilangan jinoyatlar oʻrtasidagi asosiy tafovut jinoyat subyektiga borib taqaladi. Ya'ni kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyati mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilsa – 207-modda, mansabdor shaxs boʻlmagan xodimlar tomonidan sodir etilsa, 116-modda bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 116- va 207-moddalarini farqlashda muhim mezon mansabdor shaxsning mansab vazifasini yoki kasb vazifasini buzganini aniqlashdan iborat. Jumladan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bosh shifokor – mansabdor shaxs, uning kasbi esa jarrohlik yoki terapevt va h.k. boʻlishi mumkin. Basharti bosh shifokor mansab vazifasini buzsa – 207-modda, kasb vazifasini buzsa, 116-modda bilan javobgarlikka tortiladi.

JK 116-moddasini 207-moddadan farqlovchi asosiy belgi uning subyekti bilan bogʻliq. 207-moddada mansabdor shaxslarning mansabi yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmasliklari bilan bogʻliq harakatsizliklari uchun javobgarlik belgilanadi.

Jinoyat ishlari tahlili kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik xavf ostida qoldirish (117-modda), jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzish (144-modda), mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-modda), hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish (227-modda), hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish (228-modda), togʻ-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish (258-modda) kabi jinoyatlar bilan birgalikda sodir etilganligini koʻrsatmoqda.

**Xulosalar**

Kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilish va oʻxshash jinoyatlardan farqlash masalalari boʻyicha quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Amaldagi jinoyat qonuniga koʻra, shaxs kasb yuzasidan oʻz vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITS yuqtirilganda, qilmish JK 116-moddasi bilan emas, balki JK 113-moddasi beshinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi;

2. Xorijiy davlatlar (Rossiya, Armaniston, Qozogʻiston, Belarus) jinoyat qonunlariga koʻra, "Tibbiyot xodimlarining kasb majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi" moddasida tibbiyot xodimlari tomonidan boshqa shaxsga OIV/OITSni yuqtirishi ogʻirlashtiruvchi qism sifatida kiritil-

gan. Shundan kelib chiqib, JK 116-moddasi "Kasb yuzasidan oʻz vazifasini lozim darajada bajarmaslik" moddasining ikkinchi qismiga "shaxsning kasb yuzasidan oʻz vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi" hamda uchinchi qismiga "shaxsning kasb yuzasidan oʻz vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida ikki yoki undan ortiq shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi" bandlarini kiritish maqsadga muvofiq.

3. JK 116-moddasiga "shaxsning kasb yuzasidan oʻz vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida boshqa shaxsga OIV kasalligi/OITSni yuqtirishi" degan qoʻshimcha kiritish va JK 113-moddasi 5-qismini JKdan chiqarish maqsadga muvofiq.

4. JK 116-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti maxsus, yaʼni kasbiga koʻra biror majburiyatni bajarishi shart boʻlgan (116-modda birinchi qismi) yoki qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam koʻrsatish majburiyati yuklatilgan shaxslar (116-modda ikkinchi qismi) hisoblanadi, yaʼni 116-moddadagi javobgarlik belgilangan jinoyatning subyekti 117-moddadagi xavf ostida qoldirish subyektiga nisbatan birmuncha tor doiradagi shaxslar sanaladi.

5. JK 116-moddasi ikkinchi qismi jabrlanuvchisi alohida belgiga ega boʻlgan kasal boʻlsa, 117-moddada jabrlanuvchilar (hayoti yoki sogʻligʻi xavf ostida qolgan va oʻzini oʻzi himoya qilish imkoniyatidan mahrum boʻlgan har qanday shaxs jabrlanuvchi boʻlishi mumkin) doirasi birmuncha kengdir.

6. JK 116-moddasi ikkinchi qismi va 117-moddasi obyektiv tomoni bir-biriga oʻxshab ketadi. Har ikkala jinoyat ham moddiy tarkibli boʻlib, jabrlanuvchiga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir darajadagi shikast yetishini nazarda tutadi. 116-modda obyektiv tomoni aralash harakatsizlik (yaʼni ham yordam koʻrsatadi, lekin lozim darajada boʻlmaydi), 117-moddada esa butunlay harakatsizlik (umuman yordam koʻrsatmaydi) boʻladi.

7. JK 117-moddasida aybdor jabrlanuvchini shu ahvolga solgan boʻlishi lozimligi holati ham inobatga olingan, vaholanki, 116-moddada bunday alomat mavjud emas.

8. Tibbiyot xodimlari kasb yuzasidan oʻz vazifalarini bajarish chogʻida mansabdor shaxslarga xos boʻlgan tashkiliy-boshqaruv vakolatlariga ham, maʼmuriy-xoʻjalik vakolatlariga ham ega boʻlmaydilar, shunga koʻra mansabga sovuqqonlik bilan qarash uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin.

9. Tibbiyot muassasasining mansabdor shaxsi jarrohlik uchun pora olib, soʻng oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmay, qilmishi bemorning oʻlimiga sabab boʻlsa, uning harakat (harakatsizlik)lari JK 116- va 210-moddalari bilan jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak. Chunki bu yerda ikki mustaqil jinoyat tarkibi (pora olish va kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik) mavjud boʻladi.

Yuqorida bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi sud-tergov organlarida kasb yuzasidan oʻz vazifalarini lozim darajada bajarmaslik jinoyatini kvalifikatsiya qilish va oʻxshash jinoyatlardan farqlash masalalarida kelib chiqadigan xatolarni bartaraf etishga imkon beradi.

## REFERENCES

1. Kabulov R., Yakubov A.S., Ilxamov A.N. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. Uslubiy material [Qualification of crimes. Methodical material]. Tashkent, MIA Academy of the Republic of Uzbekistan, 2001, p. 24.

2. Kabulov R. Ponyatyye i znacheniye sostava prestupleniya po ugolovnomu pravu Respubliki Uzbekistan [The concept and significance of the corpus delicti in the criminal law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, *Law*, 2002, vol. 5, pp. 25–26.

3. Irkaxodjaev A.K., Xolikulov U.Sh. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ilmiy asoslari [Scientific basis of qualification of crimes]. Tashkent, TSIL Publ., 2007, p. 59.

4. Ugolovnyy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, GrossMedia Publ., 2018.

5. Ugolovnyy kodeks Respubliki Armeniya [Criminal Code of the Republic of Armenia]. Moscow, Legal. Center Press Publ., 2018, p. 446.

6. Ugolovnyy kodeks Respubliki Kazakhstan [Criminal Code of the Republic of Kazakhstan]. Moscow, Legal. Center Press Publ., 2018, p.466.

7. Ugolovnyy kodeks Respubliki Belarus' [Criminal Code of the Republic of Belarus]. Minsk, Amalthea Publ., 2018.

8. Davletmuratov S. Xavf ostida qoldirishning subyektiv tomonini aniqlash yuzasidan ayrim mulohazalar [Some comments on determining the subjective side of endangerment. Legal science newsletter]. Tashkent, *Scientific-practical Legal Journal*, 2018, vol. 2, pp. 107–111.

9. Davletmuratov S.R. Xavf ostida qoldirish jinoyati subyektiv tomonining ahamiyati [The importance of the subjective side of the crime of endangerment]. *Justice,* 2020, vol. 8, pp. 24–25.

10. Turg'unboev E.O. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik va xavf ostida qoldirish jinoyatining farq qiluvchi belgilari [Distinctive signs of the crime of improper performance of one's professional duties and endangerment]. *Collection of Scientific Articles of Young Scientists*, 2010, vol. 1, p. 114.

11. Davletmuratov S.R. Nravstvennyye i pravovyye predposylki otvetstvennosti za ostavleniye v opasnosti [Moral and legal prerequisites for responsibility for leaving in danger]. 2nd Proceedings of the scientific-practical conference on the problems of improving criminal legislation, Tashkent, TSIL Publ., 2010, pp. 315–316.

12. Davletmuratov S.R. Otvetstvennost' za ostavleniye v opasnosti po ugolovnomu zakonodatel'stvu nekotorykh razvitykh zarubezhnykh stran [Responsibility for leaving in danger under the criminal legislation of some developed foreign countries]. Poland, *Warsaw, Scientific Ideas of Young Scientists*, 2020, pp. 289–294.

13. Serogin I.V. Prichiny dolzhnostnoy khalatnosti v sfere meditsinskogo obsluzhivaniya naseleniya [Causes of official negligence in the field of medical care of the population]. Barnaul, 1999, p. 33.

14. Borzenkov G.N. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv zhizni i zdorov'ya [Qualification of crimes against life and health]. Moscow, Zertsalo-M Publ., 2006, p. 228.

15. Borchashvili I.Sh. Sub"yekt prestupleniya [Subject of the crime]. Almaty, Zheti-zhargy Publ., 2007, p. 96.

16. Volkova T.N. Sub"yekt prestupleniya [The subject of the crime]. Vologda, Vologda State University Publ., 2005, p. 76.

17. Karagezyan G.G. Otvetstvennost' za prestupleniya, sovershennyye vsledstviye nenadlezhashchego ispolneniya litsom svoikh professional'nykh obyazannostey [Responsibility for crimes committed as a result of improper performance by a person of his professional duties]. Moscow, 2009, p. 82.

18. Rustamboyev M.H., Axrarov B.J. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Qualification of crimes against administrative order]. Tashkent, TSIL Publ., 2006, p. 19.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 6-SON

VOLUME 4 / ISSUE 6 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.6.